

## TURKISTON QO'RBOSHILARI

**Abdurahmonova Muslimaxon Fazlitdin qizi**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

**N.Muxammedova**

*Ilmiy rahbar PhD., dotsent*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada sovet mustamlakasi davrida Turkiston ASSR da amalga oshirilgan mustaqillik uchun kurash harakatlari bayon etilgan. Turli hududlardagi qo'rboshilarning sovet rejimiga qarshi isyonlari, istiqloлчаilik harakatining sabab va oqibatlari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Istiqloлчаilik harakati, Turkiston qo'rboshilari, isyon bo'lib o'tgan hududlar, harakat ishtirokchilari.*

**Аннотация:** *В данной статье описывается борьба за независимость в Туркестанской АССР в советский колониальный период. Объясняются восстания солдат в разных регионах против советской власти, причины и последствия движения за независимость.*

**Ключевые слова:** *движения за независимость, Туркестанские воины, районы, где произошло восстание, Участники движения.*

**Abstract:** *This article describes the struggle for independence in the Turkestan ASSR during the Soviet colonial period. The uprising of soldiers in different regions against the Soviet power, the causes and consequences of the independence movement are explained.*

**Keywords:** *movement for independence, Turkestan warriors, areas where the uprising took place, participants of movement.*

## KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar SSSRning mustamlaka respublikalaridan biri bo'lgan. Respublikamiz hududida 1918-yilda tuzilgan davlat tarixda Turkiston ASSR nomi bilan atalgan. Turkiston ASSR da 1918-1943- yillarda sovet rejimiga qarshi ko'tarilgan milliy ozodlik harakatlari O'rta Osiyo tarixida muhim ahamiyat kasb etib, kurash ko'lami kengligi va murakkab ziddiyatli jarayonlar mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. Bolsheviklar humkronligi davrida Turkistonda ro'y bergan og'ir iqtisodiy inqiroz va hudud aholisi uchun mos kelmaydigan qonunlar chiqarilishi ushbu harakatlarning asosiy sabablaridan biri edi. O'lkada bo'lib o'tgan ushbu harakat tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan. Garchi qo'rboshilar harakatlari mamlakatni ozod qilish, erkin iqtisodiy va siyosiy muhit yaratish uchun ko'tarilgan bo'lsa-da, bosqinchi hukumat tomonidan "buzg'unchilik harakatlari", "aksilingilobiy kuchlar", "bosmachilik" deya xato baholandi. Lekin o'zining boy va sharafli o'tmishidan xabardor o'zbek xalqi kurshlarning asl mohiyatini tushunib yetdi. "Bosmachilik" deya qoralangan ajdodlarimizning mardonavor ishlarini mustaqillik uchun bosilgan shiddatli qadamlar ekanligini angladilar. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, ushbu

harakat hududlarning geografik qamrab olganiga ko'ra 3 asosiy nuqtaga bo'linadi. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari milliy ozodlik harakatlarining markazlari hisoblangan. Keltirilgan manzillarda tashkil etilgan mustaqillik harakatlari yetakchilari qo'rboshilar deb nomlangan. Ularning mardonavor olib borgan janglarining o'tli nafasi butun o'lka fuqarolarini jangda ishtirok etishga chorlagan. Katta va Kichik Ergash, Shermuhammadbek, Muhiddinbek, Madaminbek, Ochilbek kabi jasur yetakchilar yurt ozodligi yo'lida o'z jonini fido qilgan qo'rboshilar sifatida yurtimiz tarixida abadiy nom qoldirdi.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Ushbu qo'rboshilar boshchilik qilgan qurolli harakatlar 2 katta davrni bosib o'tgan. Sovet tuzumiga qarshi isyonlarning 1-to'lqini 1918-1924 yillarni o'z ichiga olib, ushbu qo'zg'olon Kichik Ergash va Katta Ergash tomonidan boshqarilgan. Farg'ona vodiysi hududini qamrab olgan ushbu harakat 1918-yil 19-21 fevralda Qo'qon shahridagi urushda mag'lubiyatga uchragan. Mag'lubiyatdan so'ng Kichik Ergash boshchiligidagi Turkiston muxtoriyati hukumatining qo'shini Qo'qon uyezdidagi Bachqir qishlog'iga chekingan. Bachqirdagi qo'rboshilar qo'shiniga qarshi zarba berish uchun 26-fevralda qizil armiya askarlar otryadi qishloqqa hujum qilgan. Natijada, harakatning boshlig'i va faol ishtirokchisi Kichik Ergash jangda halok bo'lgan. Kichik Ergash vafotidan so'ng Katta Ergash (Mulla Ergash) bolsheviklarning mustamlaka tuzumiga qarshi kurash boshladi. Katta Ergash faoliyati nafaqat Farg'ona vodiysi, balki Samarqand viloyati hududlariga ham keng tarqaldi. Katta Ergashning qo'rboshilik harakati 1918-yildan qizg'in tus ola boshladi. Bachqir qishlog'i aholisi o'rtasida katta obro'ga ega bo'lgan Katta Ergashni mahalliy qurultoylarning birida "Amir ul-muslimin" (Musulmonlar amiri) deya e'lon qilinganligi yuqorida keltirilgan fikrning dalilidir. Katta Ergash, avvalo, Chustni zabt etib, butun Turkiston viloyatlari bo'ylab ozodlik harakatlarini amalga oshiradi. Namangan uyezdining To'raqo'rg'on volostida bo'lib o'tgan dastlabki zafarli jangdan so'ng, qizil armiya vakillari istehkomlardan biriga hujum uyushtiradi. Aynan ushbu hujum oqibatida harakatchilarning ko'pchiligi vafot etadi. Mag'lubiyatdan so'ng Farg'onada bir-biriga bo'ysunishni istamagan ikki yirik markazlar vujudga keladi. Katta Ergash va Madaminbek tomonidan boshqarilgan ushbu markazlar 1919-yilda Isfarada to'qnashadi va Katta Ergash mag'lubiyati bilan yakun topadi. "Amir ul-muslimin"likdan mahrum etilgandan so'ng, Katta Ergash hech kimga bo'ysunmasdan, o'zi istaganday jang olib boradi. Armiya askarlarining Bachqir qishlog'iga uyushtirgan yurishi oqibatida u qarorgohidan ayriladi. Manbalarda keltirilishicha, Katta Ergash jang paytida olgan jarohatlari natijasida aqlan va jismonan zaif bo'lib qolgan. Oxir oqibat mag'lub etilgandan keyin qochishga uringanda rus askarlari tomonidan qatl etilgan.

Janglarda qozonilgan g'alabalar tufayli obro'si oshib borgan Madaminbek keyinchalik Farg'ona vodiysidagi ozodlik kurashlariga boshchilik qilishni o'z qo'lga oladi. Asl kasbi militsiya xodimi bo'lishiga qaramay, Madaminbek istiqloqlilik janglarida faol ishtirok etadi. Farg'ona viloyati harbiy komissari K.Osipov Madaminbekni militsiya boshlig'i lavozimiga tayinlaydi. 1918-yil yanvarigacha ushbu sohada mehnat qilgan Madaminbek yurt

mustaqilligi va xalq farovonligi yo'lida qo'rboshilik harakatiga qo'shiladi. U o'z atrofiga Marg'ilondagi yoshlarni yig'a boshlaydi. 1918-yilgi rasmiy hujjatlarning bayon qilishicha, Madaminbekning Garbuva qarorgohiga ko'plab yosh yigitlar oqimi kelib qo'shiladi. Madaminbek asosiy maqsadi bo'lgan Turkiston muxtoriyatini qayta tiklash, ozodlik va erkinlikni ta'minlash g'oyalari yo'lida ayovsiz kurash olib boradi. Bu yo'lda u kuchli sarkardalik va siyosatchilik qobiliyatlarini namoyon etadi. Qat'iy harbiy tartib va intizom mavjudligi g'alabaning bosh omillaridan biri edi. Madaminbek atrofidagi barcha qo'rboshilarni birlashtirishga, yagona taktika bilan harakatlantirishga kirishdi. Ayrim sardorlarning qarshiligini sindirish qiyin bo'lgan bo'lsa-da, Madaminbek buning uddasidan chiqadi. Qolgan hududlarga ham o'z jamoadoshlarini yuborib, sulh tuzishga erishadi. Madaminbekning kuch-qudratini to'g'ri baholay olgan ayrim maddohlarning e'tirof etishicha, Madaminbek qo'rboshilarning eng kuchlisi hisoblangan. Vatanparvar yo'l boshchi Madaminbek 1920-yil fitna natijasida xoinlarcha qatl etildi. Uning hozirgi Qirg'iziston Respublikasida joylashgan qabri ustiga ham vatanparvarlik ruhidagi misralar yozib qo'yilgan.

Qo'rboshilik harakatlarining yirik markazlaridan biri Buxoro hisoblanib, Amir Olimxon taxtdan ag'darilgach, ushbu harakatlar avj ola boshladi. Sharqiy Buxoro hududida milliy ozodlik kurashlariga boshchilik qilgan Ibrohimbek qo'rboshilik harakatlarining eng mashhur namoyandasi bo'lgan. Amir Olimxon taxtdan mahrum bo'lgach, Sharqiy Buxoro atroflariga chekinadi. Shu davr mobaynida u Ibrohimbekni ma'naviy va moddiy jihatdan ta'minlab turadi. Ibrohimbek sovet jangchilariga qarshi kurashar ekan, u Buxoro hududidan rus bosqinchilarini chiqarib yuborish, o'zbek xalqiga munosib boshqaruv tizimini yaratishni asosiy maqsadi etib belgilaydi. Tobora keskin tus ola boshlagan janglardagi mag'lubiyat natijasida Ibrohimbek Afg'oniston hududiga o'tib ketadi. Oradan vaqt o'tgach, u o'z Vataniga qaytadi. Janglardan birida og'ir jarohat olib, asirlikka tushishi va tinimsiz so'roqlar unga o'z ta'sirini o'tkazadi. Tergov komissiyasi xulosalariga ko'ra, Ibrohimbek va unibg safdoshlari 1932-yilda o'linga hukm qilinadi. Vatanimiz xuddi shu yili yana bir mard va jasur farzandidan ayriladi.

### **XULOSA**

O'lkamiz boy tarixga ega bo'lib, u olimlar tomonidan bir necha bosqichlarga bo'lib o'ragniladi. O'tmishda davlatimiz boshqa davlatga qaram bo'lgan paytlar ham bo'ldi. Sobiq Sovet davrida O'zbekiston mustamlaka respublika sifatida qaralib, barcha rus qonunlari bizda ham joriy etildi. Turkiston ASSR tashkil topgan paytda olib borilgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat ko'pchilikda norozilik kayfiyatini uyg'otdi. Natijada, qo'rboshilik harakatlari amalga oshirilib, butun o'lka bo'ylab shiddat bilan tarqaldi. Ushbu ozodlik harakati "bosmachilik" deya qoralanib, ishtirokchilar beayov jazolandi. Yurtimizning mard farzandlari nohaq o'ldirilib, kurashlar bostirildi. Ammo shunday bo'lsa-da, ushbu harakatlar besamar bo'lmadi. Mustaqillik va erkinlik uchun tashlangan zalvorli qadamlar kelajakda ozod va farovon hayot yaratilishi uchun poydevor vazifasini o'tadi.

Qo'rboshilik harakatlarida ishtirok etib, nohaq ayblangan insonlarning nomi mustaqillik sharofati oqlanib, abadiylashtirildi. Yosh avlodga ularning jasoratlari hanuzgacha ibrat qilib kelinmoqda.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Rajabov Q, Farg'ona vodiysidagi istiqlochlilik harakatlari: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari, T.; 2015. B. 89
2. Rajabov Q, Ko'rsatilgan asar. B. 91
3. "Наша газета", 22 декабрь 1918 г
4. R. Shamsuddinov, Sh. Karimov, Vatan tarixi, III qism. T.: Sharq, 2010.B.118
5. Q. Rajabov, A. Zamonov, O'zbekiston tarixi, 10-sinf. T.: G'afur G'ulom, 2017.B.27-28